

TALABALARDA ATROF MUHITNI MUHOFAZA QILISH BORASIDAGI
KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH

To'raqulova Visola

Jizzax davlat pedagogika universiteti "Tabiiy va aniq fanlarda masofaviy ta'lim"
kafedrası o'qituvchisi

Shukurov Diyorjon

Jizzax davlat pedagogika universiteti Biologiya o'qitish metodikasi yo'nalishi, 5-
kypc talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalar orasida atrof-muhitni muhofaza qilishga oid ko'nikmalarni shakllantirish masalasi yoritilgan. Muallif ekologik muammolarning global tus olgani, ularni hal etishda yosh avlodning roli, O'zbekistondagi ekologik siyosat va xalqaro hamkorlik doirasidagi sa'y-harakatlar haqida so'z yuritadi. Ayniqsa, Orolbo'yi inqirozi misolida ekologik muammolarning jiddiyligi va ularni bartaraf etishdagi davlatlararo hamkorlik muhimligi ta'kidlangan. Shuningdek, talabalar ekologik madaniyatini shakllantirishda ta'lim, targ'ibot va amaliy loyihalarning o'rni alohida ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: atrof-muhit, ekologik muhofaza, ekologik madaniyat, Orol inqirozi, xalqaro hamkorlik, qonunchilik, ekologik siyosat, barqarorlik, ta'lim.

Bugungi kunda atrof-muhitni muhofaza qilish masalasi global miqyosda eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Insoniyat taraqqiyoti, texnologiyalarning rivojlanishi, sanoatning kengayishi natijasida ekologik muvozanat izdan chiqmoqda. Ayniqsa, yosh avlod – talabalar orasida ekologik madaniyatni shakllantirish, atrof-muhitga ongli munosabatni rivojlantirish dolzarb vazifaga aylangan. Zero, ekologik barqarorlikni ta'minlash yo'lida har bir fuqaroning mas'uliyati muhim, xususan, bilimli va ongli yoshlar bu yo'lda yetakchi bo'lishi zarur.

Atrof-muhitni muhofaza qilish muammosi respublika ekologik siyosatining ajralmas qismiga aylandi, O'zbekiston 10 ta konvensiyaga qo'shildi va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida hamkorlik qilish to'g'risidagi 12 ta Xalqaro shartnomalarni imzoladi va ularning shart va talablarini bajarish bo'yicha Jahon Hamjamiyati oldida ma'lum majburiyatlarini qabul qildi. Masalan, atrof-muhitni muhofaza qilish, cho'llashishga qarshi kurash, biologik xilma-xillikni saqlash, Ozon qobig'ini yemirtiruvchi ozon (Oz), metan (SN₄) va shunga o'xshagan zaharli g'azlar (freon, xlor birikmalari va boshqalar)ning atmosfera havosiga chiqarib tashlash miqdorini

kamaytirish buyicha milliy strategiya va harakat dasturlarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirdi va ushbu masalalar chegaralararo loyihalar doirasida bajarilib kelinmoqda.

Bundan tashqari, Orol fojiasi hozirgi vaqtda davlatlararo ahamiyat kasb etgan yirik ekologik falokat hisoblanadi. Ekologik sharoitlarni yaxshilash maqsadida 1994 yil yanvar oyida Markaziy Osiyo mamlakatlarining rahbarlari tomonidan "Orol dengizi havzasida ekologik sharoitni yaxshilash uchun konkret harakatlarning dasturi" qabul qilindi. Dastur Orol inqirozini yumshatishiga qaratilgan loyihalar mujmuasidan iborat bo'lib, 1997 yiddan boshlab loyixalarni amalga oshirish ishlari boshlangan. Eng yirik loyihalardan biri – "Orol dengizi havzasida suv zahiralari va atrof-muhit holatini boshqarish" loyihasi hisoblanadi. Ushbu loyiha Orolni suv bilan ta'minlash ishlarini yo'lga qo'yish, ko'l tizimlarini tiklash, chegaralararo suvlar miqdorini hisobga olish va sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan. Albatta, ushbu loyihalarni amalga oshirish Orol bo'yidagi ijtimoiy-ekologik vaziyatni sog'lomlashtirishga katta ko'mak beradi. O'zbekiston ushbu loyihalarni amalga oshirishga katta hissa qo'shib kelmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ekologik qonunchilik aktlarida ekologik huquqiy javobgarlikni maxsus me'yorlari mavjuddir. Barcha sanoat korxonalarini uchun yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan tashlamalar va ifloslovchi moddalarni chiqarishning individual me'yorlari belgilangan. Amaldagi qonunlarga ko'ra, limitdan ortiq tashlama va chiqindilar uchun to'lov to'lash zarurdir. Bu mablag'lar asosan Respublika va mahalliy tabiatni muhofaza qilish fondlariga tushadi. Ularning ma'lum qismi tabiatni muhofaza qilish loyihalarini amalga oshirishga sarflanadi.

Shuni ham yodda tutish kerakki, qabul qilingan qonunlar orqali har bir ishlab chiqaruvchi korxonaga tabiatni saqlash qonunchiligiga rioya qilish, tabiat zahiralardan samarali foydalanish, atrof-muhitni ifloslantirishdan saqlash, energiya tejovchi, hamda chiqindisiz va kam chiqindili texnologiyalarni joriy etish tabiiy xom ashyolarni kompleks qayta ishlash atrof-muhit holatlarini nazorat qiladigan avtomatlashtirilgan sistemalar va asbob-uskunalar ishlab chiqarish vazifalari yuklatilgan.

Hozirgi vaqtda global tavsifga ega bo'lgan ekologik muammolarni hal qilish muhim va zarur ekanligi butun dunyo mamalatlari tomonidan tan olindi. Mamlakatlarning geografik o'rni va iqtisodiy rivojlanishdan qat'iy nazar ularning serqirra va o'zaro bog'liqligining umumiy choratadbirlari va takliflarini ishlab chiqishni talab qiladi. Shu bilan birga ta'kidlash joizki, jahonning turli mamlakatlari atrof-muhitni sog'lomlashtirish dasturlarini hayotga tatbiq qilish bo'yicha bir xil imkoniyatga ega emas. Bu borada hamkorlik va dunyo hamjamiyatining yordami ham muhimdir.

Tabiatni muhofaza qilishdagi xalqaro aspektlar quyidagi tadbirlarni o'z ichiga oladi:

- tabiatdan foydalanish milliy dasturlarini tadbir qilishda tajriba almashuv;
- davlatlararo dastur hamda bitimlarni yaratish va joriy qilish;
- atrof-muhit holatini nazorat qilish bo'yicha xalqaro tashkilotlarni ta'sis etish va qabul qilingan bitimlarni bajarish.

Hozirgi vaqtda barcha rivojlangan mamlakatlarda atrof-muhitni muhofaza qilish milliy dasturlari ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu dasturlarni tadbir qilish, birinchi navbatda, to'planib qolgan ifloslanishni yo'qotishga, ko'zda tutilgan choralar asosan ishlab chiqarish faoliyati natijasida kelib chiqqan noxush natijalarni bartaraf etishga yo'naltiriladi. Bunday yondashish dastlab o'zini oqladi, keyinchalik esa, ba'zi hollarda ekotizimni buzilganligi sababli tezkorlik bilan qutqarish ishlarini olib borishga to'g'ri keldi. Hozir bularga boshqacha urg'u berilmoqda. Ko'pgina mamlakatlarda tabiatdan foydalanish bo'yicha majmual dasturlar qabul qilingan. Bular qonuniy ravishda amal qiladi. Unda tabiatdan foydalanish faoliyatini tartibga solish bo'yicha davlatning kuchli roli o'z ifodasini topgan, huquq va ma'suliyati aniqlangan.

Tabiatni muhofaza qilishni davlat tomonidan tartibga solish usullarini turli tumanligiga qaramasdan, bu yerda umumiylik shundan iboratki, davlat tabiat muhofazasi siyosatining maqsadlarini o'rnatadi, tabiatdan foydalanuvchilar bilan o'zaro munosabat me'yorlarini, ya'ni xo'jalik mexanizmi deb ataluvchi qoidalarni ishlab chiqadi. Bu mexanizm o'zining elementlari bilan iqtisodiy va noiqtisodiy tavsifga ega bo'lib, bozor munosabatlari asosida harakat qiladi. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda ekologik siyosatni o'tkazish va harakat qilish asosida turli xil ifloslanish standartlarini o'rnatish yo'li bilan atrof-muhitning me'yoriy sifat holati tamoyillariga asos solindi. Bu andozaga o'tish bilan soliq siyosatiga mos ravishda (jazolovchi, avf etuvchi va rag'batlantiruvchi tavsifga ega bo'lgan) imtiyozli kredit berish, me'yoriy va me'yoridan ortiq darajasi uchun to'lovlar, jarima to'lash va boshqalar amalga oshiriladi.

Noiqtisodiy sharoitlarga quyidagilarga kiradi: ishlab chiqarishni bevosita ta'qiqlash; korxonani yopishni ma'muriy hal qilish; jinoiy javobgarlikka tortish.

Hozirgi vaqtda tabiat muhofazasi bo'yicha faol siyosatga o'tish rivojlanayotgan mamalatlarga xosdir. Ularda chegaralash, ishlab chiqarish hajmining o'sayotgani bilan emas, balki "iflos" ishlab chiqarish korxonalari sonining ko'payishi bilan bog'liq. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda tabiat muhofazasi bo'yicha qonunlar ishlab chiqildi, davlat organlari ta'sis etildi, ekotizimni saqlash dasturlari yaratilmoqda, ifloslanish andoza va me'yorlari ishlab chiqilmoqda. "Uchinchi dunyo" mamlakatlari

uchun albatta rivojlangan mamlakatlar tajribasi, xususan tejash, chiqindisiz texnologiya, agrar sohada hosildorlikni ko'tarish va yoqilg'i – energetika resurslaridan foydalanish samaradorligi kabilar muhimdir. Bu tajribalar tabiat muhofazasi bo'yicha juda ko'p muammolarni yechishda, umumiy ijimoiyiqtisodiy rivojlanish vazifalarini amalga oshirishda xatoliklarga yo'l qo'ymaslikka yordam beradi. O'tish davrini o'tayotgan mamlakatlarda (Markaziy va Sharqiy Yevropa, Rossiya, MDH) tabiat muhofazasi bo'yicha faoliyat tajribalari o'sha rejalai, Markaziy boshqaruv davrida to'plangan edi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish – bu faqat hukumat yoki alohida tashkilotlarning emas, balki har bir insonning burchidir. Talabalar esa bu jarayonda asosiy kuch bo'lishi mumkin. Ularni ekologik jihatdan mas'uliyatli, ongli va faol shaxslar qilib tarbiyalash – kelajak avlod uchun sog'lom va toza muhitni ta'minlashning eng muhim kafolatidir. Ta'lim, amaliyot va targ'ibotning uyg'unligi orqali bu maqsadga erishish mumkin. Maqolada qayd etilganidek, atrof-muhitni muhofaza qilish har bir fuqaroning, ayniqsa yoshlarning ijtimoiy burchi hisoblanadi. Talabalarning ekologik ongini yuksaltirish, ularni amaliy faoliyatga jalb etish orqali ekologik muammolarni hal etish yo'lida samarali natijalarga erishish mumkin. Shu boisdan ta'lim muassasalari, davlat organlari va xalqaro tashkilotlar o'rtasida uzviy hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Ekologik madaniyatli avlodni tarbiyalash orqali barqaror rivojlanish sari ishonchli qadamlar tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent: Adolat, 2013.
2. O'zbekiston Respublikasida 2023–2030 yillarda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasidagi ekologik islohotlar to'g'risidagi davlat dasturi. – Toshkent: Iqtisodiyot va moliya vazirligi nashri, 2023.
3. Yo'ldoshev Q.Q., Nishonov F.N. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
4. Xamdamiyov A. Atrof-muhit va uning muhofazasi. – Toshkent: Fan, 2017.
5. Jorayeva G. Talabalarda ekologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari // "Ta'lim va taraqqiyot" jurnali, 2021, №4.
6. Global ekologik muammolar va ularni hal etish yo'llari: xalqaro tajriba. – Toshkent: Ekosan, 2020.
7. Orolbo'yi inqirozi va uning oqibatlarini. – Nukus: Qoraqalpoq nashriyoti, 2021.

8. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris: UNESCO Publishing, 2017. (tarjimasi asosida foydalanilgan)
9. Turakulova, Visola. "O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASI "QIZIL KITOBI" GA KIRITILGAN MURAKKABGULDOSHLAR OILASINI O'RGANISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR." *Мир исследований* 3.3 (2021).
10. Bekmirzaev, MX, Turaqulova, VX, Pardaboev, SB, Xorozov, SJ, & Xolbo'tayev, SM, SM Biologiya o'qituvchilarini tayyorlash muammosi bo'yicha zamonaviy tadqiqotlar tasnifi. *Xalqaro sog'liqni saqlash fanlari jurnali* , 6 (S2), 1500-1506.
11. Uralov, AI, Turaqulova, VK, Esanqulova, DS, & Dismuratova, FM Intrapopulation o'zgaruvchanligi va allium bulbous turlarining reproduktiv strategiyasi variantlari (Amaryllidaceae).